



KAFIL
SUG'URTA

Sug'urta kompaniyasi
Страховая компания

**OBYEKTЛАRNI DAVLAT MABLAG'LARI VA HUKUMAT KAFOLATI
OSTIDAGI KRYEDITLAR HISOBIGA BARPO ETISHDA QURILISH
TAVAKKALCHILIKLARINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH UCHUN
OMMAVIY OFERTA**

"SMR"

Kod:59



KAFIL
SUG'URTA

Toshkent sh. 2022 y.

TASDIQLAYMAN
«KAFIL SUG'URTA» AJ
Boshqaruv raisi

F.A. Artikov

2022 yil «__» _____dagi

_____sonli buyruqqa 2-ilova

**OBYEKT LARNI DAVLAT MABLAG'LARI VA HUKUMAT KAFOLATI OSTIDAGI KRYEDITLAR HISOBIGA
BARPO ETISHDA QURILISH TAVAKKALCHILIKLARINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH UCHUN
OMMAVIY OFERTA**

Ushbu Ommaviy oferta (bundan buyon matnda Oferta deb yuritiladi) "KAFIL-SUG'URTA" AJ ning (bundan buyon matnda Sug'urtalovchi deb yuritiladi) noma'lum doiradagi yuridik shaxslarga (bundan buyon Sug'urta qildiruvchi deb yuritiladi) yo'llangan quyidagi sug'urta shartlarida Ofertani Sug'urtalovchining axborot tizimlari vositasida tuzish taklifi bo'lib hisoblanadi. Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi shartnoma taraflaridir.

Mazkur Oferta shartlarining qabul qilinishi va shartlashilgan sug'urta mukofotining to'lanishi uning shartlarini akseptlash hamda Sug'urta qildiruvchining Ofertani tuzishga roziligi bo'lib hisoblanadi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlanganidan keyin unga sug'urta polisi beriladi va Oferta tuzilgan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Oferta shartlarining qabul qilinishi mazkur Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilingan deb hisoblanadi va u bilan quyidagilarga rozilik ifodalanadi:

-mazkur Oferta shartlari, jumladan unda bayon qilingan sug'urta shartlariga rozilik;

-arizani to'ldirishda ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan tarzda ishlov berish yuli orqali 5 yil muddatga ishlashga, jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, ulardan foydalanish, ularni egasini ko'rsatmaslik, bloklash, yo'q qilishga (yo'q qilish haqida xabar qilmagan holda), shuningdek Ofertani bajarish, ichki hujjat aylanmasini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxslarga ularni berishga rozilik.

Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining internet resursi vositasida Ofertani tuzish natijasida o'z huquqi va muomalaga layoqatligini tasdiqlaydi, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgarlikni anglaydi.

Sug'urtalovchining internet resursida onlayn tarzda Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchidan uning elektron pochta manzili va telefon raqami, davlat ro'xatidan o'tganligini tasdiqlovchi guvohnomasi, buyurtmachi nomi, manzili, pudratchi nomi va manzili, qurilish ob'ekti belgisi (agar ob'ekt bir nechta bosqichda qurilayotgan bo'lsa, sug'urtalanayotgan bosqichni ko'rsatish kerak), qurilish maydoni joylashgan joy va manzili, davlat, ma'muriy bo'linma, okrug, viloyat, tuman, shahar, qishloq, ovul ko'rsatilishi kerak, qurilish ob'ekti ta'rifi (aniq mavjudligi talab qilinadi).

Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining internet resursida Sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur va muhim bo'lgan barcha ma'lumotlarni kiritilishi Sug'urta uchun ariza bo'lib hisoblanadi.

Sug'urtalovchi «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasi talablariga muvofiq Sug'urta qildiruvchiga doir ma'lumotlari saqlanishini va oshkor qilinmasligini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

«Oferta», «Oferta» va «Sug'urta polisi» havolalari bundan buyon matnda mazkur elektron hujjatga nisbatan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

1. Umumiy shartlar

1.1. Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchining mulkiy manfaatlarini, hamda qurilish pudrati shartnomasida ko'zda tutilgan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish vaqtida uchinchi shaxslar hayoti, sog'lig'i va mulkiga zarar yetkazish uchun Sug'urta qildiruvchining javobgarligini sug'urtalaydi va sug'urta hodisasi ro'y bergan taqdirda, Sug'urta puli doirasida Ofertada belgilangan tartibda, Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi zararlarini qoplash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. Oferta O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 20 dekabrda 532-sonli "Obyektlarni davlat mablag'lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etishda qurilish tavakkalchiliklarini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq tuzilgan.

2. Ishlatiladigan asosiy atamalar va ularning ta'rifi:

2.1. Sug'urtalovchi

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Litsenziyasi asosida sug'urta faoliyatini amalga oshiradigan **“KAFIL-SUG'URTA” AJ**

2.2. Sug'urta qildiruvchi

Ofertani tuzgan, sug'urta mukofotini to'layotgan va Sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabatlariga kirayotgan, sug'urta qilinayotgan mulkni saqlanishidan manfaatdor shaxs.

2.3. Naf oluvchi

foydasiga Oferta tuzilgan shaxs. Agar Ofertada boshqa shaxs ko'rsatilmagan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi Naf oluvchi deb tan olinadi.

2.4. Uchinchi shaxs

Sug'urta qildiruvchi bilan shartnomaviy munosabatlari mavjud bo'lmagan, va qurilish pudrati shartnomasi bilan ko'zda tutilgan qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish vaqtida uning hayoti, sog'lig'i va mulkiga zarar yetkazilishi mumkin jismoniy yoki yuridik shaxs.

2.5. Qonuniy asosi

Vazirlar Mahkamasining «Obyektlarni davlat mablag'lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etishda qurilish tavakkalchiliklarini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» 1999 yil 20 dekabrda 532-son qarori.

2.6. Sug'urta obyekti

Binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, mashinalar, ularga ehtiyot qismlar, materiallar va qurilish maydonida bo'lgan hamda Ofertada qayd etilgan qurilish va montaj buyumini o'zida ifodalaydigan boshqa mol-mulk, shuningdek qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda uchinchi shaxslarning hayotiga, sog'lig'iga va mol-mulkiga zarar yetkazilganligi uchun sug'urtalanuvchining javobgarligi sug'urta qilish ob'ektlari hisoblanadi.

2.7. Sug'urta hodisasi

Sug'urta hodisasi deb, Oferta tuzilgan, shartnoma bilan istisno qilinmagan hodisa haqiqatan ham sug'urta davrida va sug'urta hududida ro'y bergan, va hujjatlar bilan tasdiqlangan hodisa tan olinadi:

Oferta asosida, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchining mulkiy manfaatlarini quyidagi xatarlar oqibatida mulki shikastlanishi yoki yo'qotilishidan sug'urta himoyasini taqdim etadi:

- yong'in, chaqmoq, portlash, uchuvchi apparatlarning qulashi, o'z-o'zidan yonish;
- o'g'rilik va uchinchi shaxslarning qasddan sodir etgan harakatlari;
- suv toshqini va suv bosishi, quvurlarning yorilishi;
- bo'ron, dovul;
- zilzila, sel, ko'chki, tuproqning cho'kishi, o'pirilish, qulash;
- qisqa tutashuv, ortiqcha kuchlanish, elektr yoylari;
- mashina va mexanizmlar, qurilish materiallari va konstruksiyalarning qulab tushishi;
- nuqsonli materiallar va konstruksiyalarni ongsiz ravishda qo'llashdan ko'rilgan zarar;
- qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda uchinchi shaxslar oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lishi.

3. SUG'URTA HODISASI

3.1. Sug'urta hodisasi deb, Oferta tuzilgan, shartnoma bilan istisno qilinmagan hodisa haqiqatan ham sug'urta davrida va sug'urta hududida ro'y bergan, va hujjatlar bilan tasdiqlangan hodisa tan olinadi:

3.2. Oferta asosida, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchining mulkiy manfaatlarini quyidagi xatarlar oqibatida mulki shikastlanishi yoki yo'qotilishidan sug'urta himoyasini taqdim etadi:

- yong'in, chaqmoq, portlash, uchuvchi apparatlarning qulashi, o'z-o'zidan yonish;
- o'g'rilik va uchinchi shaxslarning qasddan sodir etgan harakatlari;
- suv toshqini va suv bosishi, quvurlarning yorilishi;

- bo‘ron, dovul;
- zilzila, sel, ko‘chki, tuproqning cho‘kishi, o‘pirilish, qulash;
- qisqa tutashuv, ortiqcha kuchlanish, elektr yoylari;
- mashina va mexanizmlar, qurilish materiallari va konstruksiyalarning qulab tushishi;
- nuqsonli materiallar va konstruksiyalarni ongsiz ravishda qo‘llashdan ko‘rilgan zarar;
- qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda uchinchi shaxslar oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo‘lishi.

4. SUG‘URTA PULI VA SUG‘URTA MUKOFOTI

4.1. Qurilayotgan ob‘ekt to‘liq qiymatining 80 foizidan ortiq bo‘lmagan qismi yoki ilgari bajarilgan ishlar hajmi, shu jumladan materiallar qiymati hisobga olingan holda rejalashtirilayotgan yilda barpo etilayotgan ob‘ekt qiymatining bir qismi tomonlarning kelishuviga ko‘ra sug‘urta puli bo‘ladi.

Umumiy sug‘urta puli miqdori Shartnomaning 1-ilovasi deklaratsiyasining 6-bandida ko‘rsatilgan.

Umumiy sug‘urta mukofoti miqdori Shartnomaning 1-ilovasi deklaratsiyasining 7-bandida ko‘rsatilgan.

4.2. Mazkur Shartnomaning 1-ilovasi deklaratsiyasining 1-bandida tashkilot nomi ko‘rsatilgan.

4.3. Mazkur Shartnomaning 1-ilovasi deklaratsiyasining 2-bandida Qurilish Ob‘ektning manzili: ko‘rsatilgan.

4.4. Mazkur Shartnomaning 1-ilovasi deklaratsiyasining 3-bandida Qurilish Ob‘ektning bahosi ko‘rsatilgan.

4.4. Mazkur shartnomaning 1-ilovasi deklaratsiyasining 4-bandida Moddiy zarar bo‘yicha sug‘urta javobgarligi miqdori ko‘rsatilgan.

4.5. Mazkur shartnomaning 1-ilovasi deklaratsiyasining 5-bandida Uchinchi shaxslar oldidagi fuqarolik Javobgarligi miqdori ko‘rsatilgan.

4.6. Sug‘urta mukofoti Sug‘urta qildiruvchi tomonidan bir vaqtda to‘liq to‘lanadi.

4.7. Qurilish ob‘ekti sug‘urta qildiruvchiga va sug‘urtalash uning foydasiga tuzilgan shaxsga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra konservatsiya qilinganda Oferta bo‘yicha qolgan davr uchun mutanosib ravishda hisoblab chiqarilgan sug‘urta to‘lovining bir qismi sug‘urtalovchi tomonidan qaytarilishi mumkin.

4.8. Agar ishlarni jadallashtirish natijasida qurilishning belgilangan muddati Ofertada ko‘rsatilgan sug‘urta muddati tugashidan ilgari tugasa sug‘urta to‘lovi qaytarilmaydi.

5. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA SUG‘URTA POLISINI BERISH TARTIBI

5.1. Mazkur Oferta Sug‘urta qildiruvchining yozma ravishdagi Arizasiga asosan Sug‘urtalovchi va Sug‘urta qildiruvchi o‘rtalarida tuzildi.

5.2. Mazkur shartnoma bo‘yicha Sug‘urtalovchining javobgarligi sug‘urtalangan mol-mulk qurilish maydoniga tushirilgan kundan boshlanadi, Sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urta mukofoti o‘z vaqtida to‘langanda va bevosita qurilish maydonida ish yoki yuk tushirish ishlari boshlangandan keyin shartnomada ko‘rsatib o‘tilgan sanadan boshlab kuchga kiradi.

5.3. Sug‘urtalovchining javobgarligi sug‘urta mukofoti hisob raqamiga kelib tushgan kundan boshlanadi.

5.4. Sug‘urtalovchining javobgarligi qurilish, montaj qilish, asbob uskunalarini bo‘sh va ish holatida sinashning butun davri mobaynida davom etadi va ob‘ektni foydalanishga topshirish paytida, biroq sug‘urta polisida ko‘rsatilgan sanadan kechikmay tamom bo‘ladi.

5.5. Oferta asosan Sug‘urtalovchining hisob-raqamiga Sug‘urta mukofoti tushgan kundan boshlab 5 (besh) kun ichida Sug‘urta polisi beriladi.

5.6. Sug‘urta polisi Ofertaning amal qilish muddatigacha beriladi.

5.7. Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urta polisini yo‘qotgan holda, uning yozma ravishdagi arizasiga asosan, Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchiga Sug‘urta polisini ko‘chirma nushasini (dublikatini) yozib beradi. Yo‘qotib qo‘yilgan Sug‘urta polisi bekor qilinadi.

5.8. Oferta Sug‘urta qildiruvchining yozma arizasiga asosan (qonun hujjatlarida belgilangan tartibda) har qanday holatda o‘zgartirilishi, o‘zgartirishlar kiritilishi yoki to‘xtatilishi mumkin.

5.9. Sug‘urtalovchining faoliyati tugatilgan holda, Ofertaning amal qilishi ham to‘xtatiladi. Ofertaga tegishli bo‘lgan barcha huquq va majburiyatlar uning qonunchilik asosida belgilangan huquqiy vorisiga o‘tadi.

5.10. Sug‘urtalovchi Ofertani tuzishda Sug‘urta syurveyeri xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

6. SUG‘URTA HODISASI

6.1. Mazkur shartnomaga asosan qurilish maydonida kutilmagan tasodifiy va to‘satdan ro‘y beruvchi hodisalar natijasida sug‘urtalangan mulkning shikastlanishiga yoki nobud bo‘lishiga sabab bo‘luvchi haqiqatda sodir bo‘ladigan voqealar, ya‘ni yong‘in, chaqmoq, portlash, uchuvchi apparatlarning qulashi, o‘z-o‘zidan yonish, o‘g‘irlik va uchinchi shaxslarning qasddan sodir etgan harakatlari, suv toshqini va suv bosishi, quvurlarning yorilishi, bo‘ron, dovul, zilzila, sel, ko‘chki, tuproqning cho‘kishi, o‘pirilish, qulash, qisqa tutashuv, ortiqcha kuchlanish, elektr yoylari, mashina va mexanizmlar, qurilish materiallari va konstruksiyalarning qulab tushishi, nuqsonli materiallar va konstruksiyalarni ongsiz ravishda qo‘llashdan ko‘rilgan zarar, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda uchinchi shaxslar oldida fuqarolik javobgarligining paydo bo‘lishi Sug‘urta hodisasi hisoblanadi.

6.2. Quyidagilar Sug‘urta hodisasi hisoblanmaydi:

6.2.1. har xil harbiy harakatlar yoki harbiy tadbirlar va ularni oqibatlar, minalar, bombalar, boshqa urush qurollarining ta‘siri, xalq g‘alayonlari va ish tashlashlari, terrorizm, musodara qilish, rekvizitsiya, mol-mulkni xatlab qo‘yish, harbiy yoki fuqaro ma‘murlari va biron bir siyosiy tashkilotlarning farmoyishiga ko‘ra mol-mulkning yo‘q qilinishi yoki shikastlantirilishi;

- 6.2.2. yadro portlash, radiatsiya va radiktiv zaharlanish;
- 6.2.3. Sug'urta qildiruvchining, foydasiga sug'urta tuzilgan shaxsning yoki ularning vakillarining qasddan qilgan harakati yoki qo'pol ehtiyotsizligi;
- 6.2.4. Sug'urta qildiruvchi foydasiga sug'urta tuzilgan shaxslarga yoki ularning vakillariga sug'urta hodisasi boshlangungacha ma'lum bo'lgan xatolar, kamchiliklar yoki nuqsonlar;
- 6.2.5. loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilmagan ishlarining qisman yoki umuman to'xtatilishi;
- 6.2.6. ayrim buyumlarning karroziyaga uchrashi, chirishi, tabiiy eskirishi, o'zidan- o'zi yonishi yoki boshqa tabiiy xossalari, bunda ushbu hodisalar keltirib chiqargan baxtsiz hodisalar natijasida boshqa sug'urta qilingan buyumlar shikastlanishidan ko'rilgan zararining o'rni qoplanadi;
- 6.2.7. loyiha smeta hujjatlarida nazarda tutilmagan tajriba yoki tadqiqot ishlari;
- 6.2.8. qurilish texnikasi va transport vositalari ichki tomonining tashqi omillarga bog'liq bo'lmagan holda sinishi natijasida shikastlanishi.
- 6.3. Sug'urtalovchi shuningdek ob'ektlar qurilishida foydalaniladigan nuqsonli materiallar, buyumlar yoki ularning qismlari almashtirilishi, tuzatilishi yoki sozlanishi qiymatini, shuningdek ishlarni amalga oshirishdagi xatolar qiymatini ham to'lamaydi. Ushbu istisno dawl qilingan nuqsonli materiallar va buyumlar bilangina bevosita cheklanib qoladi, ammo materiallar yoki ishlardagi bunday nuqsonlar natijasida to'g'ri qurilgan ob'ektlar va buyumlarga yetkazilgan zarar qoplanishini istisno qilmaydi.
- 6.4. Yonilg'i-moylash materiallari, kimyoviy moddalar, sovutish suyuqliklari va boshqa yordamchi materiallar, sug'urta qilingan ob'ekt tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (sug'urtalangan tavakkalchiliklar uchun zarur bo'lgan qurilish ob'ektlaridan tashqari), qimmatbaho metallar, toshlar, san'at asarlari, hujjatlar va qimmatli qog'ozlarning nobud bo'lishi yoki shikastlanishi, shuningdek faqat xatlov paytida aniqlangan zarar, boy berilgan foyda yoki shartnomaviy jarimalar singari biror-bir bilvosita zarar sug'urta bilan qoplanmaydi.
- 6.5. Moddiy zarar bo'yicha to'lanmaydigan holatlar:
- har bir sug'urta hodisasiga alohida Sug'urta qildiruvchi olib boradigan zarar miqdori uchun shartnomada ko'rsatilgan franshizaga;
 - har xil xususiyatga ega bo'lgan jarimadan boshlab, shartnoma talablarining buzilishi, bekor qilinishi, to'lovni kechiktirishda kelib chiqqan zararlarga;
 - noto'g'ri loyihalashtirish natijasida buzilgan joyga va zararlarga;
 - qurilish ishlarini bajarishdagi xatoliklarni yoki nuqsonli xom-ashyoni bartaraf etish yoki ta'mirlash yoki sozlash ishlariga, almashtirishga ketgan harajatlarga;
 - odatdagi ob-havo sharoiti ta'sirida yoki foydalanmaganlik natijasida eskirishi, karroziyaga uchrashi, oksidlanishida bahosini tushishiga;
 - qurilish maydonida qurilish mashinalarini va asbob-uskunalarini mexanik va elektr buzilishlar natijasida buzilishi, izdan chiqishi, moylash-sovutish suyuqliklarini muzlashi, nuqsonli moylash yoki yonilg'i-moylash xom ashyolarini va sovutish suyuqliklarini oqib chiqib ketishi, agarda bunday buzilishlar baxtsiz hodisa tufayli buzilgan hisoblanib qo'shimcha shikastlanish keltirib chiqargan bo'lsa bu zarar qoplanadi;
 - papka hujjatlari bilan, chizmalar, qog'ozlar, pullar, hisob varaqalar, markalarni har xil turi, qarz majburiyati to'g'risidagi hujjatlar, qimmatli qog'ozlar yoki cheklar, banknotlarga zarar yetishi yoki nobud bo'lishiga;
 - xatlov paytida aniqlangan zararlar yoki shikastlanishlarga.
- 6.6. Javobgarlik bo'yicha Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga quyidagi hollarda keltirilgan zararlarga javobgarlik olib bormaydi:
- a) Moddiy zarar bo'yicha qisman yoki to'liq sug'urtalangan qurilish ishlari bilan shug'ullanuvchi pudratchi (pudratchilar), buyurtmachi (buyurtmachilar) yoki boshqa firmalarning ishchi va xizmatchilari yoki ularning oila a'zolarining kasallanishi yoki tanasi shikastlanishiga;
- b) Moddiy zarar bo'yicha qisman yoki to'liq sug'urtalangan qurilish ishlari olib borish topshirilgan pudratchi (pudratchilar), buyurtmachi (buyurtmachilar) yoki boshqa firmalar ularning boshchiligida nazoratda yoki saqlorida turgan mulklariga yoki ishchi va xizmatchilariga;
- v) yo'llarda foydalanishga ruxsat berilgan transport vositalari yoki suzuvchi vositalar yoki samolyotlar keltirib chiqargan baxtsiz hodisalarga;
- g) kelishmasdan oldin bor javobgarlikdan tashqari yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ixtiyoriy tartibda Sug'urta qildiruvchi qabul qilgan tovon to'lash bo'yicha majburiyatlar yoki boshqa turdagi kompensatsiyalarga.

7. SUG'URTA TOVONI MIQDORINI ANIQLASH VA TO'LASH TARTIBI

7.1. Moddiy zarar bo'yicha Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi o'zaro qayd etib o'tilgan mulklarga yoki ularning qismiga sug'urta muddati davomida Sug'urta hodisasi natijasida kutilmaganda va to'satdan yetkaziladigan, to'lanmaydigan holatlar bo'yicha shartlashilmagan sabablar natijasida shikastlangan, mulkni ta'mirlash va almashtirishga zaruriyat keltirib chiqaradigan moddiy zararni hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan qoplab beradi, biroq jami har bir sug'urta hodisasi va umumiy summa bo'yicha shartnomada shartlashilgan sug'urta pulidan oshmagan miqdorda qoplab beradi. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasidan keyin hududni tozalash bilan bog'liq oqilona harajatlarni ham to'laydi, biroq u sug'urta pulining 2.0 foizidan ortiq bo'lmaydi.

7.2.1 Javobgarlik bo'yicha Mazkur shartnoma doirasida zarar yoki shikastlanish quyidagi tartibda qoplanadi:

a) sug'urtalangan mulklarning shikastlanishidan avvalgi holatiga keltirish uchun bartaraf etish mumkin bo'lgan shikastlanish ta'mirlash harajatlari bo'yicha qoplanadi;

b) sug'urtalangan mulklarning shikastlanishi oqibatida to'liq nobud bo'lishi, mazkur shartnomani shartlarini bajarish va qo'shimcha shartlariga rioya qilish sharti bilan mulkni haqiqiy bahosi bilan biroq ko'rsatilgan sug'urta puli miqdorida qoplab beriladi.

Sug'urtalovchi ta'mirlash ishlari qilinganligi yoki shikastlangan qismini almashtirilganligi haqida xujjatlar yoki zarur hisob-kitob xujjatlari taqdim qilingandan so'ng zararni qoplab beradi.

Sug'urta hodisasi ro'y berganda ta'mirlashga beriladigan barcha shikastlanishlarni ta'mirlash ishlariga ketgan xarajatlar sug'urtalangan mulklarni bahosidan oshib ketganda zararni tugatish "b" kichik bandidagi shartlar tartibida amalga oshiriladi.

Agar ta'mirlash oxirgi ta'mirlashni oxirgi qismi hisoblanib, ta'mirlash ishlari bo'yicha jami harajatlar oshib ketmasa, Sug'urtalovchi taxminiy ta'mirlash ishlariga harajatlarni qoplab berishi mumkin.

Mazkur shartnoma doirasida bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgartirishlarga, qo'shimchalarga yoki yangiliklarga aloqador harajatlarga qoplama to'lanmaydi.

7.2.2. Sug'urtalovchi javobgarlik bo'yicha Sug'urta qildiruvchiga yuqori darajada shartnomada qayd etilgan Sug'urta puli chegarasida, ya'ni Sug'urta qildiruvchi fuqarolik javobgarligi olib boradigan summada:

a) baxtsiz hodisa ro'y berishi natijasida uchinchi shaxslarni tanasi shikastlanishiga yoki kasallanishiga (o'limiga);

Sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun tovon quyidagi miqdorlarda to'lanadi:

Tan jarohati og'irligi	To'lov miqdori (O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdori)
Odam o'limi	100
Tan jarohati (I guruh nogironligi)	60
Tan jarohati (II guruh nogironligi)	40
Tan jarohati (III guruh nogironligi)	20
Nogironlikka olib kelmagan jarohat va boshqa tan jarohatlari	10

b) sug'urta davri mobaynida uchinchi shaxslarning mulkiga baxtsiz hodisa tufayli yetkazilgan zarar va shikastlanishlarga, agar bu baxtsiz hodisa moddiy zarar bo'yicha sug'urtalangan qurilish va montaj ishlari olib borilayotganda qurilish maydonining o'zida yoki bevosita yonginasida ro'y bersa qoplab beriladi.

7.3. Sug'urta hodisasi boshlanganda Sug'urta qildiruvchi yoki Oferta uning foydasiga tuzilgan shaxs, sug'urtalovchining so'rovnomalarini yoki talablarini kutib o'tirmasdan, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni kamaytirishning imkoni bo'lgan barcha choralarini ko'rishi va 7 kalendar kundan kechikmay sug'urtalovchini sodir bo'lgan hodisadan yozma ravishda xabardor qilishi shart.

7.4. Sug'urta qildiruvchi, Sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalovchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- Sug'urta hodisasi to'g'risida xabarnoma;
- Sug'urta polisi;
- Sug'urta hodisasini tasdiqlovchi mutasaddi tashkilotlarning hujjatlari;
- Sug'urta hodisasi natijasida zararlangan Mol-mulkning fotosuratlarini;
- Sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lgan Sug'urta hodisasiga oid boshqa ma'lumotlar.

7.5. Sug'urta qildiruvchining yozma arizasi olingandan va sug'urta to'loni to'lash to'g'risidagi masalani hal etish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar olingandan keyin komissiya tuziladi, komissiya tarkibiga Sug'urta qildiruvchining va sug'urtalovchining vakillari, shuningdek, zarurat bo'lganda, manfaatdor shaxs hisobiga vakolatli tashkilotlarning vakillari kiritiladi.

7.6. Barcha taraflar ma'lumotnomaga imzo chekadilar va imzo chekish jarayonida o'z e'tirozlarini ma'lumotnomada aks ettiradilar.

7.7. Tuzilgan ma'lumotnomalar Sug'urta hodisasi tan olinganligi yoki tan olinmaganligini bildirmaydi va ma'lumotnomalar asosida Sug'urta to'loni to'lanmaydi.

7.8. Sug'urtalovchi taqdim etilgan hujjatlarning to'g'riligini tekshirishi va zarur holatlarda, boshqa kerakli hujjatlarni talab qilishi mumkin.

7.9. Sug'urta qildiruvchi har qanday holatda o'z mablag'lari hisobidan Sug'urta hodisasi bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlarni (Sug'urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi va hodisa tafsilotlari haqida ma'lumotnoma) ishlab chiqish, harid qilishi va Sug'urtalovchiga taqdim etishi shart.

7.10. Sug'urta qildiruvchi Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda zararlangan mol-mulkni ta'mirlash, sotish, metallolomga topshirish yoki bironvga berish, yoqib yuborish, yo'q qilish va boshqa ishlarni Sug'urtalovchi bilan kelishgan holda (yozma ravishda) amalga oshiradi.

7.11. Sug'urta to'loni haqiqiy yetkazilgan zarar miqdorida, agar Ofertada Franshiza qo'llanilgan bo'lsa, ushbu Franshiza miqdori hisobga olinib, lekin shartnomada belgilangan Sug'urta pulidagi miqdoridan oshmagan holda belgilanadi.

7.12. Sug'urta puli ob'ekt bahosidan kam qilib belgilanganligi uchun Sug'urtalovchi Sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urta qildiruvchiga u ko'rgan zararni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 936-moddasiga asosan Sug'urta pulining ob'ekt bahosiga bo'lgan nisbatiga mutanosib ravishda qoplaydi.

7.13. Sug'urta to'loni dalolatnomaga qo'l qo'yilgan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida to'lab beriladi.

7.14. Sug'urta to'loni mazkur Ofertaga asosan hisob raqamga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

7.15. Sug'urta hodisasi ro'y berganda yana amal qilinayotgan Oferta mavjud bo'lsa yoki zarar yetkazgan shaxsdan Sug'urta qildiruvchi foydasiga moddiy zarar undirilgan bo'lsa, to'langan yoki qoplangan zararni chegirib tashlagan holda Sug'urta to'loni to'lab beriladi.

8. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

8.1. Sug'urtalovchining huquqlari:

- sug'urtalangan qurilish ob'ektining holatini, sharoitini Ofertani tuzishda va amal qilish davrida hamda Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda tekshirish;
- Sug'urta qildiruvchi Oferta shartlarini bajarmaganda, Ofertani bekor qilish;
- mazkur shartnoma hamda qonunchilikda belgilangan tartibda Sug'urta tovonini to'lashni rad etish;
- sug'urtalangan qurilish ob'ektida sodir bo'lgan hodisa yuzasidan yo'qotilish yoki shikastlanish bo'yicha aybdor shaxslar aniqlangan hollarda to'langan Sug'urta tovonini ulardan undirib olish haqida da'vo qilish;
- Sug'urta tovonini miqdorini aniqlash uchun Sug'urta qildiruvchidan mutasaddi tashkilotlarning dalolatnomalarini, ekspertlar xulosalarini taqdim etishni talab qilish;
- Sug'urta qildiruvchining taqdim etgan hujjatlarining to'g'riligini tekshirish va zarur holatlarda, boshqa kerakli hujjatlarni talab qilish;
- Sug'urta qildiruvchi oldidagi Sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilganida, Ofertani muddatidan oldin bekor qilish;
- Sug'urta syurveyeri hamda Sug'urta hodisalari bo'yicha Adjaster xizmatlaridan xizmatlaridan foydalanish.

8.2. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- Sug'urta polisini mazkur Ofertada belgilangan muddatda Sug'urta qildiruvchiga yozib berish;
- Sug'urtalangan qurilish ob'ektida Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi to'g'risidagi xabarnomani olgach, 3 (uch) kun ichida joyiga chiqib yetkazilgan zararni aniqlash va tegishli tashkilotlar vakili ishtirokida ma'lumotnoma tuzish;
- Sug'urta hodisasi natijasida sug'urtalangan qurilish ob'ektidagi yetkazilgan zarar bo'yicha Sug'urta tovonini miqdorini hisoblab chiqish va dalolatnoma asosida belgilangan muddatda to'lash.

8.3. Sug'urta qildiruvchining huquqi:

- mazkur Ofertada kelishilgan shartlar asosida Sug'urta polisini Sug'urtalovchidan olish;
- mazkur Ofertaning amal qilish davrida shartnomaga doir savollarga Sug'urtalovchidan to'liq javoblar olish;
- Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda ushbu shartnomada ko'rsatilgan tartibda Sug'urta tovonini olish.

8.4. Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:

Sug'urta qildiruvchi javobgarlikdan tashqari o'z hisobidan barcha oqilona ehtiyotkorlik choralari ko'radi va shikastlanishlarni, zararlarni bartaraf etish bo'yicha Sug'urtalovchi bergan barcha zarur tavsiyalarga rioya qilishi, shuningdek qurilish qoida va me'yorlari talablariga, asbob uskunalar tayyorlash tavsiyalariga amal qilishi;

Qurilish maydonida o't o'chirish va yong'inga qarshi quyidagi choralarga tegishli maxsus shartlar bajarilishini nazoratga oladi:

- kerakli miqdordagi ishchilar yong'inga qarshi asbob uskunalaridan foydalanish uchun o'rgatilgan va yong'in bo'lganda tezkor harakatga tayyor turishi;
- tegishli yong'inga qarshi asbob uskunalar va kerakli o't o'chiruvchi moslamalar doim ish holatida turishi;
- ob'ektda ish boshlanganda barcha yong'inga qarshi ko'rilgan vositalar sozlangan va foydalanish uchun tayyor bo'lishi;
- tezda o't oluvchan va yonuvchan materiallar yonida payvandlash yoki olovli ishlar o'tkazishda bitta o'qigan ishchi yong'in bilan kurash uchun shay turgandagina yo'l qo'yishi;
- barcha qurilish konstruksiyalarini, materiallarini va buyumlarini tegishli qoidalar va me'yorlar talabi doirasida saqlashi;
- eng yaqin o't o'chirish brigadasi mazkur hudud bilan tanishtirish va hohlagan paytda shu hududga erkin kirishi uchun ruxsat berishi;
- qurilish maydoni o'ralgan va unga kirishni nazorat qilishi;

Hodisa ro'y berganda mazkur shartnoma doirasida talabni asoslamoqchi bo'lganda Sug'urta qildiruvchi quyidagilarga majbur:

- Sug'urtalovchiga xavf xususiyati va ehtimoldagi miqdorini yozma ravishda 7 kalendar kunida xabar qilishi;
- zararlarni kamaytirishga mavjud barcha choralarni ko'rishi;
- zararlangan qismni saqlab qo'yish va Sug'urtalovchining vakiliga yoki ekspertga ko'rikdan o'tkazish uchun taqdim qilishi;
- Sug'urtalovchiga ro'y bergan hodisaga taalluqli barcha ma'lumot va xujjatlarni taqdim qilishi;
- qulf buzilib amalga oshirilgan o'g'irlik natijasida zarar ko'rilganda sodir bo'lgan voqea haqida huquqni muhofaza qilish idoralariga xabar berishi;
- mazkur Ofertadagi shartlarni belgilangan muddatlarda bajarish, ularni buzmaslik uchun barcha choralarni ko'rishi;
- belgilangan muddatlarda Sug'urta mukofotini to'lashi;
- Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda, Sug'urtalovchiga belgilangan muddatda, yozma ravishda xabarnoma berish va Sug'urta tovonini aniqlash uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni taqdim qilishi;

- Sug'urta qildiruvchi mazkur mol-mulk bo'yicha boshqa sug'urta tashkilotlari bilan tuzilgan barcha sug'urta shartnomalari to'g'risida sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi;
- Sug'urta hodisasi ro'y berganda zarar miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan fotosurat yoki videotasmalar bilan Sug'urtalovchini ta'minlashi;
- yuridik manzili va bank rekvizitlari o'zgarganda Sug'urtalovchiga 10 kun ichida yozma ravishda xabarnoma berishi;
- Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda ta'mirlash va boshqa (sotish, metallolomga berish va hokazolarni) ishlarini Sug'urtalovchi bilan kelishilgan holda amalga oshirishi.

9. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

9.1.Oferta istalgan paytda, bir tomonning yozma arizasiga asosan bekor qilinishi mumkin, bunda yozma ariza Shartnomani bekor qilishning taxminiy sanasidan kamida 5 (kun) kun avval berilishi shart.

9.2.Oferta muddatdan avval bekor qilingan taqdirda, to'langan sug'urta mukofoti quyidagi tartibda qaytariladi:

a) Sug'urta qildiruvchi ushbu sug'urtadan Sug'urtalovchi shartnoma shartlarini buzganligi sababli muddatdan avval voz kechganda, sug'urta mukofoti to'liq qaytariladi;

b) Shartnoma tomonlar kelishuviga asosan muddatdan avval bekor qilinganda, sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchiga sug'urtalashning tugamagan davriga mutanosib ravishda, to'langan sug'urta mukofotining 45% miqdorida Sug'urtalovchining ish yuritish bo'yicha xarajatlarini va avval to'langan sug'urta tovonining miqdorini ayirib, qaytariladi.

9.3.Oferta Sug'urta qildiruvchi shartnoma shartlarini buzganligi sababli Sug'urtalovchi tashabbusi bilan bekor qilinsa, sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

10. SUBROGATSIYA

10.1. Sug'urta qildiruvchining Sug'urta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 957-moddasiga asosan Sug'urtalovchiga o'tadi. Sug'urtalovchiga o'tgan talab qilish huquqi uning tomonidan Sug'urta qildiruvchi va zarar uchun javobgar bo'lgan shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

10.2. Sug'urta qildiruvchi, Sug'urtalovchiga o'ziga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar va dalillarni Sug'urtalovchiga berishi, hamda barcha ma'lumotlarni unga ma'lum qilishi shart.

10.3. Sug'urta qildiruvchi, Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsга nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish Sug'urta qildiruvchining aybi bilan mumkin bo'lmagan bo'lsa, Sug'urtalovchi Sug'urta tovonini to'liq yoki uning tegishli qismini to'lashdan ozod qilinadi va ortiqcha to'langan Sug'urta tovonini qaytarilishni talab qilishga haqli bo'ladi.

11. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

11.1. Tomonlar Oferta bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki tegishli ravishda bajarmaslik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

11.2. Agar tomonlar Oferta bo'yicha majburiyatlarini yengib bo'lmaz holatlar oqibatida (fors-major) bajarishmasa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar. Yengib bo'lmaz holatlar ta'siri ostida qolgan tomon ikkinchi tomonni aytib o'tilgan holatlar ro'y berganligi va ularning taxminiy davomiyligi to'g'risida darhol yozma ravishda xabardor qilishi shart.

11.3. Agar Oferta tuzilganidan so'ng, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi ro'y berishi ehtimolini aniqlash uchun ahamiyatli holatlar to'g'risida bila turib, yolg'on ma'lumotlar berganligi aniqlansa, Sug'urtalovchi Ofertaning haqiqiy emas deb tan olinishini va Sug'urta qildiruvchiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan nazarda tutilgan oqibatlarni qo'llashni talab etishga haqli.

12. NIZOLARNI HAL ETISH

12.1. Mazkur Shartnomadan chiqishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan hal etiladi.

12.2. Kelishuvga erishish imkoniyati bo'lmaganda, Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi – yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor o'rtasidagi nizo va kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Iqtisodiy sudida ko'rib yakuniy hal qilinadi.

12.3. Kelishuvga erishish imkoniyati bo'lmaganda, Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi – jismoniy shaxs o'rtasidagi nizo va kelishmovchiliklar javobgar joylashgan manzil bo'yicha fuqarolik sudida hal etiladi.

12.4. Mazkur Oferta bir xil yuridik kuchga ega ikki nusxada tuzilgan va imzolangan bo'lib, har bir tarafda bittadan nusxa saqlanadi.

12.5. Mazkur Ofertada aks ettirilmagan boshqa shartlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

13. BOSHQA SHARTLAR

13.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha tomonlar Shartnomaning ilovalarini va unga tegishli hujjatlarni uchinchi tarafga tomonlarning yozma rozilgisiz bermaydi va ushbu Shartnomaga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlarni sir saqlaydilar.

13.2. Mazkur Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchida bitta nusxadan saqlanadi va ularning har biri bir xil huquqiy kuchga ega.

14. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Sug'urta qildiruvchi ushbu Oferta va sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) ni imzolash orqali sug'urta xizmatining mazmun-mohiyati, uning narxi (sug'urta mukofoti), sug'urta mukofotini qaytarish shartlari, xizmatning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, sug'urta agenti (vositachi ishtiroki mavjud bo'lganda) to'g'risidagi barcha zarur ma'lumotlar va sug'urta qoidalari bilan to'liq tanishib chiqqanini hamda ularga rozi ekanini tasdiqlaydi.